

**ISLOMDA GAROV MASALALARINING
KLASSIK VA ZAMONAVIY TALQINI:
«MAJALLA AL-AHKAM AL-ADLIYA»
VA AAOIFI SHARIAT STANDARTLARI
MISOLIDA**

**CLASSICAL AND CONTEMPORARY
INTERPRETATIONS OF PLEDGE (RAHN)
IN ISLAM: A COMPARATIVE STUDY OF
MAJALLA AL-AHKAM AL-ADLIYYA AND
AAOIFI SHARIAH STANDARDS**

**КЛАССИЧЕСКОЕ И СОВРЕМЕННОЕ
ТОЛКОВАНИЕ ИНСТИТУТА ЗАЛОГА
(РАХН) В ИСЛАМЕ: НА ПРИМЕРЕ
«МАДЖАЛЛА АЛЬ-АХКАМ АЛЬ-АДЛИЯ»
И ШАРИАТСКИХ СТАНДАРТОВ ААОИФИ**

BEKMIRZAYEV Ilhomjon

INTERNATIONAL ISLAMIC ACADEMY OF UZBEKISTAN

Doctor of Historical Sciences, Professor

Qadiri str. 11, 100011, Tashkent, Uzbekistan

E-mail: ilhorient@gmail.com

NOROVA Iroda

INTERNATIONAL ISLAMIC ACADEMY OF UZBEKISTAN

Master's Degree Student in the specialty of Islamic

Economics and Finance

Qadiri str. 11, 100011, Tashkent, Uzbekistan

E-mail: irodanorova18@gmail.com

DOI: 10.47980/IIAU/2025/4/1

Annotatsiya. Mazkur maqolada islom huquqidagi garov (rahn) institutining klassik va zamonaviy talqinlari o'rtasida huquqiy-qiyosiy omillar tahlil qilingan. Tadqiqot obyekti sifatida XIX asrda Usmoniylar davlati tomonidan qabul qilingan ilk kodifikatsion hujjat – «Majalla al-ahkom al-adliya» kodeksidagi garovga oid qoidalar hamda AAOIFI tomonidan ishlab chiqilgan 39-sonli «Garov (rahn) va uning zamonaviy amaliyotda qo'llanilishi» nomli shariat standarti tanlab olingan. Tadqiqot mazmunan ushbu hujjatlarning matnlariga tayanilgan holda, garov obyektining tabiati, egalik shakllari, tomonlar huquq va majburiyatlari, shartnomaning ijro etilishi kabi mezonlar asosida farqlarni aniqlashga qaratilgan. Tahlil natijalariga ko'ra, har ikki manba garov (rahn)ni ishonch asosidagi, shariatga muvofiq ta'minot vositasi sifatida tan olgan bo'lsa-da, ularning yondashuvlarida zamon, huquqiy muhit va amaliy ehtiyojlar bilan bog'liq muhim tafovutlar mavjud.

Mazkur maqolada klassik fihiy merosning zamonaviy moliyaviy standartlar rivojiga asos bo'lgani yoritilib, Garov (rahn) institutining hozirgi islom moliyaviy amaliyotdagi ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar: rahn, islom fuqarolik huquqi, Majalla al-ahkom al-adliya, AAOIFI shariat standartlari, garov instituti, islom moliyasi, fihiy tafovutlar.

Abstract. This article presents a legal-comparative analysis of the classical and modern interpretations of the rahn (pledge) institution in Islamic law. The research focuses on two primary sources: the provisions on pledge in the Majalla al-Ahkam al-Adliyya, the first codified Islamic civil code adopted in the Ottoman Empire in the 19th century, and Shari'ah Standard No. 39 issued by the Accounting and Auditing Organization for Islamic Financial Institutions (AAOIFI), titled "Rahn and Its Application in Contemporary Practice."

The analysis is based on a comparative examination of both texts and explores differences in key aspects, including the nature of pledged assets, forms of possession, the rights and obligations of the parties, and enforcement mechanisms. The findings indicate that, although both sources recognize rahn as a Shari'ah-compliant security instrument grounded in trust, significant differences exist due to evolving legal contexts, societal needs, and financial practices. The article highlights the foundational role of classical Islamic jurisprudence in shaping contemporary financial standards and affirms the continued relevance of rahn in modern Islamic finance.

Keywords: Rahn, Islamic civil law, «Majalla al-ahkam al-adliya», AAOIFI shari'ah standards, Pledge institution, Comparative analysis, Islamic finance, Juristic differences.

Аннотация. В статье представлен юридическо-сравнительный анализ классических и современных интерпретаций института рахн (зalog) в исламском праве. Исследование сосредоточено на двух основных источниках: положениях о залоге в «Маджалла ал-ахкам ал-адлийя» – первом кодифицированном исламском гражданском кодексе, принятом в Османской империи в XIX веке, – и шариатском стандарте ААОИФИ (Организация по бухгалтерскому учёту и аудиту исламских финансовых институтов) №39 «Рахн и его применение в современной практике».

Анализ основан на содержании обоих текстов и рассматривает различия по ключевым аспектам, таким как характер заложенного имущества, формы владения (обладания), права и обязанности сторон, а также механизмы реализации и принудительного исполнения. Полученные результаты показывают, что, хотя оба источника признают рахн шариатски допустимым обеспечительным инструментом, основанным на доверии, между ними существуют существенные различия, обусловленные эволюцией правовых контекстов, общественных потребностей и финансовых практик.

В статье подчёркивается фундаментальная роль классической исламской юриспруденции в формировании современных финансовых стандартов и подтверждается сохраняющаяся актуальность института рахн в современной исламской финансовой системе.

Ключевые слова: рахн, исламское гражданское право, «Маджалла ал-ахкам ал-адлийя», шариатские стандарты ААОИФИ, институт залога, сравнительный анализ, исламские финансы, юридические различия.

KIRISH

Rahn – garov tushunchasi zamonaviy islom moliyasi amaliyotida shariatga muvofiq ta’minot vositasi sifatida keng qo‘llanilib, u qarzlar yoki shu kabi boshqa moliyaviy majburiyatlarni ribodan holi tarzda kafolatlash imkonini beradi. Rahn xatarlarni boshqarish va mitigatsiya qilishda muhim instrument hisoblanib, garov beruvchiga ishonch va mulk huquqi asosida hamda qat’iy va ehtimoliy kelib chiquvchi riboviy tranzaksiyalardan saqlanish fonida moliyalashtira olishiga yo‘l ochadi. Bugungi kunda rivojlanayotgan islom moliya tizimi sharoitida rahn tomonlar o‘rtasida tuzilgan aktivlar bilan ta’minlangan moliyaviy bitimlarning ishonchliligi va bitim ishtirokchilarining huquqiy himoyasini ta’minlashda dolzarb ahamiyatga ega.

Islom tijorat huquqida rahn masalasi ayniqsa, dolzarb hisoblanadi. «Baqara» surasining 283-oyati mazmun jihatdan rahn ishonch asosidagi moliyaviy munosabatni mustahkamlovchi vosita ekaniga, u shartnoma tomonlarini xavf-xatarlardan himoya qilishga xizmat qilishi va yozuvsiz sharoitlarda huquqiy kafolatni ta’minlovchi muqobil usul sifatida tan olinishiga dalil bo‘ladi (Saeed A., 2004:250). Rahn masalasi ayniqsa, hanafiy mazhabiga tegishli muomalotga oid fiqhiy masalalari tarkibida chuqurroq o‘rganilgan bo‘lib, uning ilk rasmiy huquqiy shakli XIX asrda Usmoniylar davlati tomonidan qabul qilingan islom fiqhiga doir yozilgan ilk kodifikatsion hujjat – «Majalla al-ahkom al-adliya» fuqarolik kodeksida o‘z aksini topgan (Tyser, Demetriades and Effendi, 1901:VII).

So‘nggi yillarda islom moliya institutlari tomonidan taklif etilayotgan moliyaviy mahsulotlarning diversifikatsiyalashuvi fonida ularning ishlash sxemalarining murakkablashuvi va aksariyat bank-moliya produktlarining sodda shakldan gibril shaklga o‘tishi rahn tushunchasining klassik yondashuvini zamonaviy talablarga moslashtirish ehtiyojini taqozo qildi. Bu ehtiyojga javoban, Islom moliyasi muassasalari uchun buxgalteriya va audit tashkiloti (AAOIFI) tomonidan rahn shartnomasining zamonaviy moliyaviy operatsiyalarda qo‘llanilishini tartibga soluvchi 39-sonli shariat standarti ishlab chiqildi. Shu bilan birga, rahn mavzusi zamonaviy ijtimoh masalalari ichida eng ko‘p muhokama qilib kelinayotgan mavzulardan biri hisoblanadi. Xususan, Malayziya Milliy banki – Bank Negara Malaysia huzuridagi Shariat maslahat kengashi so‘nggi yillarda garov obyektini saqlash uchun haq olish, garov obyektidan foydalanish va garov shartnomasining boshqa bitimlar bilan moslashuvchanligi va uyg‘unlashuvi kabi masalalar yuzasidan qator fatvolar e‘lon qilib kelmoqda (Bank Negara Malaysia, 2010). Ushbu fatvolar klassik huquqiy yondashuvlar zamonaviy moliya muhitiga moslashishi zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Garov masalalariga doir klassik va zamonaviy yondashuvlar ustida alohida tarzda olib borilgan izlanishlarga qaramay, ushbu klassik va zamonaviy (standartlashtirilgan) talqinlar o‘rtasida ilmiy asoslangan, tizimli qiyosiy tahlillar yetarlicha amalga oshirilmagan. Ushbu ilmiy maqola «Majalla al-ahkom al-adliya»da aks etgan rahnning klassik modeli va uning AAOIFI 39-sonli shariat standartidagi zamonaviy talqinini tizimli ravishda taqqoslash orqali ushbu bo‘shliqni to‘ldirishga bag‘ishlanadi. Tadqiqot davomida asosiy fiqhiy tafovutlar, tuzilmadagi o‘zgarishlar va ular islom moliya huquqining shakllanishiga qanchalik ta’sir ko‘rsatishi tahlil qilinadi.

ASOSIY QISM

Maqolaning mazkur bo‘limida tadqiqot uchun asos qilib olingan obyektlar – «Majalla al-ahkom al-adliya»dagi garovga oid qoidalar hamda AAOIFI 39-sonli «Rahn» Shariat standartida bayon etilgan garov konsepsiyasining zamonaviy talqini o‘rtasidagi farqlar tahlil qilinadi. Ushbu qiyosiy yondashuv orqali rahn mexanizmining turli jihatlarini – xususan, garov obyektining tabiati, egalik qilish shakllari, tomonlar huquq va majburiyatlari, shartnomaning ijro etilishi kabi mezonlar asosida yoritib beriladi. Tahlil har ikki manbaning matnlariga tayangan holda, ularning mohiyatini aniqlashtirish va o‘zaro farqlarini asosli ravishda ko‘rsatish maqsadida olib borilgan. Mazkur taqqoslash klassik fiqhiy yondashuv va zamonaviy standartlashtirilgan islom moliya amaliyoti o‘rtasidagi huquqiy uzviylik va tafovutlarni chuqurroq tushunishga xizmat qiladi. Har bir mezon tahlili yakunida qiyosiy xulosa berilib, bu ikki yondashuv o‘rtasidagi asosiy tafovutlar aniq ko‘rsatib o‘tiladi.

Ilk solishtiriluvchi mezon sifatida – garov shartnomasining tuzilishi bo‘yicha har ikki manbadagi qonuniyatlar quyidagi 1-rasmda grafik shaklda ifodalangan:

“Majalla al-Ahkam al-Adliya” kodifikatsiya asosida yondashuv	“Garov shartnomasi garovga beruvchi va garovga oluvchining o‘zaro va alohat (tashqir-qabul) asosida tuziladi. Agar garov garovga oluvchining haqqi qabulga o‘tmas, bunday shartnoma to‘g‘ri hisoblanmaydi va bekor qilinadi. Demak, garovga beruvchi garov topshirig‘iga qadar bunday shartnomani bekor qilishi mumkin. Shuningdek, garov so‘rag‘ida alohida shart o‘rnatish — asosiy e’tibor kelinayotgan mamlakat va amalda o‘rnatilish shakliga qarabdir.”
AAOIFI 39-son “Rahn” shariat standartiga asosida yondashuv	“AAOIFI standartiga ko‘ra, garov shartnomasi qat’iy ta’minotni ta’minlash maqsadida tuziladi va bu ta’minotning uzviyligi asosida amalga oshiriladi. Standartga muvofiq, mulk-mulkka egalik qilish har doim garovga beruvchi shart o‘rnatish bilan bog‘liq bo‘ladi. Shuningdek, egalik bilan ham amalda o‘rnatilishi mumkin. Bu esa garovga qo‘yilayotgan aktiv ustidan bevosita ta’minot o‘rnatilishi orqali haqqi qabulga olinadi.”
Taqqoslash natijalari	“Klassik fiqhiy yondashuvga asoslan shartnomasining haqqi qabul ta’minotiga egalik (resol qabul) orqali ta’minot, zamonaviy yondashuvda haqqi qabul (tashqir qabul) ham asos sifatida qabul qilinadi. Bu farq AAOIFIning zamonaviy moliyaviy amaliyotga moslashtirilgan yondashuvi, Majalla al-Ahkam al-Adliya’ning esa fiqhiy qat’iyligi asoslangan klassik yondashuvi bo‘ladi.”

1-rasm. Garov shartnomasining tuzilishi bo‘yicha taqqoslash natijalari va xulosa

Keyingi solishtiriluvchi asosiy mezon – garov obyektini tabiatining klassik va zamonaviy yondashuvlardagi ta’rifi va huquqiy xususiyatlarida namoyon bo’ladi. Ushbu tafovut quyidagi 1-jadvalda batafsil yoritilgan.

1-jadval

Garov shartnomasining tabiati bo’yicha qiyosiy tahlil natijalari va xulosa

«Majalla al-Ahkam al-Adliyya» kodeksiga asosan yondashuv	AAOIFI 39-son «Rahn» nomli Shariat standartiga asosan yondashuv	Taqqoslash xulosasi
Garov shartnomasining amal qilishi uchun garovga qo’yilayotgan obyekt aniq mavjud bo’lgan, aniq qiymatga ega, jismoniy va qonuniy jihatdan garovga yaroqli bo’lishi zarur. Garovga berilayotgan mulk ustidan garovga beruvchi to’liq egalik huquqiga ega bo’lishi lozim va bu mulk jismoniy shaklda bo’lishi talab qilinadi. Manbaga asosan, hayoliy yoki hali mavjud bo’lmagan mulklar garov obyektiga aylantirilmaydi. Ushbu yondashuv fiqhiy qat’iylikka asoslanib, faqat moddiy va real mavjud aktivlar garov sifatida tan olinadi.	Garovga qo’yiladigan aktiv faqat jismoniy mulk bilan cheklanmaydi, balki nomoddiy aktivlar , masalan, shartnomaviy huquqlar, daromad oqimlari yoki ijara huquqlari kabi aktivlar ham garov sifatida e’tirof etiladi. Garovga qo’yilayotgan obyekt shariat nuqtayi nazaridan halol bo’lishi, moliyaviy qiymatga ega bo’lishi va qonuniy jihatdan garov sifatida ruhsat etilishi kifoya hisoblanadi.	Mazkur ikki yondashuvni taqqoslaganda, «Majalla al-Ahkam al-Adliyya» kodeksi garovga qo’yiladigan obyektlar doirasini aniq, mavjud, jismoniy aktivlar bilan cheklaydi, AAOIFI standarti esa nomoddiy aktivlarni ham ushbu doiraga kiritish orqali zamonaviy ehtiyojlarga moslashadi. Bu tafovut klassik yondashuvdagi qat’iy shartlar bilan zamonaviy shariat asosidagi moslashuvchanlik o’rtasidagi asosiy farqni ifodalaydi.

Tadqiqot doirasida tanlab olingan uchinchi mezon – qabz (egalik) talablari bo’yicha klassik va zamonaviy yondashuvlar o’rtasidagi asosiy tafovut va o’xshashliklar quyidagi geometrik Venn diagrammasida batafsil yoritilgan:



2-rasm. Qabz (egalik) talablari bo’yicha «Majalla al-ahkom al-adliya» va AAOIFI standartidagi yondashuvlarning Venn diagrammasi asosidagi solishtirma tahlili

AAOIFI standartiga ko’ra, qabd oldi-sotdi predmeti bo’lgan mulkka egalik qilish kabi amalga oshiriladi. Garovni topshirish garov predmetini jismonan garov oluvchiga berish yoki ro’yxatga olish va hujjatlashtirish orqali amalga oshirilishi mumkin. Ikkinchi usul ta’minlovchi yoki rasmiy garov, deb ataladi. Har ikkala turdagi egalikning huquqiy hukmi bir xil hisoblanadi. Garovga oluvchi boshqa shaxsga garovga egalik qilish va muassasa nomidan ish yuritish huquqini berishi mumkin. Tayinlangan agent garov egasi ega bo’lgan barcha huquqlarga ega bo’ladi. Garov garov oluvchiga yoki bitim taraflari tomonidan kelishilgan uchinchi shaxsga («ishonchli boshqaruvchi») berilishi mumkin. Bunday holatda, tomonlarning hech biri o’zaro kelishuvsiz garovni yakka tartibda boshqa joyga o’tkazishga haqli emas (AAOIFI, 2021).

To’rtinchi mezon sifatida klassik va zamonaviy yondashuvlarda garov shartnomasi tomonlarning huquq va majburiyatlarining o’ziga xos jihatlari va xususiyatlarini ko’rib chiqamiz.

«Majalla al-ahkom al-adliya» kodeksidagi asosiy qoida shundaki, garovga oluvchi garovni majburiyat to’liq bajarilmaguncha ushlab turish huquqiga ega. Agar garovga qo’yuvchi vafot etgan taqdirda, garovga oluvchi boshqa kreditorlar oldida ustunlikka ega bo’lib, garov hisobidan qarzni undirishi mumkin. Garov qarzni talab qilish huquqini bekor qilmaydi. Garovga oluvchi garovga egalik huquqini qo’lga kiritganidan keyin ham garovga qo’yuvchidan to’lovni talab qilish huquqini saqlab qoladi. Qarz qisman to’langan taqdirda, garovning bunday qisman to’lovga ekvivalent qismini qaytarishning hojati yo’q, garovga oluvchi qarz to’liq to’langunga qadar butun garovni saqlab qolish huquqiga ega. Ammo, ikki narsa garovga qo’yilgan bo’lsa, ularning har biri qarzning ma’lum bir qismiga tegishli bo’lsa va uning bir qismiga tegishli mablag’ to’langan bo’lsa, garovga qo’yuvchi faqat shu narsaning qaytarilishini talab qilishi mumkin. Qarzga olingan garovga qo’yilgan mol-mulkning egasi garovga qo’yuvchidan garovga qo’yilgan o’ziga tegishli mol-mulkni garovdan chiqarishni va uni o’ziga qaytarishni talab qilishi mumkin. Agar, bu holatda qarzdar shaxs mablag’ yetishmasligi tufayli qarzini to’lay olmasa, mulkni garov sifatida qarzga bergan uning qarzini o’zi to’lashi va shu orqali garovga qo’yilgan mol-mulkni qaytarib olishi mumkin. Agar, garovga qo’yuvchi yoki garovga oluvchi vafot etsa, garov shartnomasi o’z kuchini yo’qotmaydi. Garovga qo’yuvchi vafot etganidan keyin uning o’rnini voyaga yetgan merosxo’rlari egallaydi. Ular marhumning merosidan qarzni to’lash orqali garovni qaytarib olishlari shart. Ammo, merosxo’rlar voyaga yetmagan bo’lsalar yoki voyaga yetgan bo’lsalar-u, muayyan sabablar bilan voqea joyida va vaqtida yo’q bo’lsalar, misol uchun uzoq safarda boshqa joyda bo’lsalar, bunday merosxo’rlarning vasiysi garovga oluvchining ruxsati bilan garovni sotishi va

sotishdan olingan tushumdan qarzni to'lashi mumkin. Qarzga olingan mol-mulkni garovga qo'ygan shaxs bankrotlik paytida vafot etgan taqdirda, bunday qarzga olingan mol-mulk garovga oluvchining ixtiyorida qoladi va mulk egasining roziligisiz sotilmaydi. Agar, garov ta'minotining egasi garovni sotish yo'li bilan qarzni qondirishga harakat qilsa, bunday garov garovga oluvchining roziligidan qat'i nazar, agar uning qiymati qarzni qondirish uchun yetarli bo'lsa, sotilishi kerak. Qarzga berilgan garov obyektining egasi vafot etgan taqdirda va uning qarzlari uning mol-mulkidan ortiq bo'lsa, garovga qo'yuvchi o'z qarzini shaxsan to'lashi va garovga qo'yilgan mol-mulkni qaytarib olishi shart. Biroq, agar u mablag'i yo'qligi sababli bunday qila olmasa, qarzga olingan mol-mulk garovga oluvchining ixtiyorida qoladi. Mulk egasining merosxo'rlari bunday garovni qarzni to'lash orqali garovdan chiqarib olishlari mumkin. Agar, garov egasining kreditorlari bunday garovni sotishni talab qilsalar, garov, agar uning qiymati qarzlarni to'lash uchun yetarli bo'lsa, garovga oluvchining roziligidan qat'iy nazar, sotiladi. Agar, qarzni to'lash uchun bu yetarli bo'lmasa, bunday garov garov oluvchining roziligi bilan sotilishi mumkin (Tyser, Demetriades and Effendi, 1901).

Zamonaviy yondashuvga asosan, garov to'g'risidagi shartnoma tuzilishining o'zi garovga qo'yuvchi uchun majburiyat yuklaydi va garovga qo'yuvchi garov shartnomasini bir tomonlama bekor qilishga haqli emas, biroq kreditor garovga oluvchi shartnomani bir tomonlama bekor qilishga haqli. Garovga oluvchi garovga qo'yuvchiga o'zi yoki uning vakiliga garov predmetini suddan tashqari tartibda undirish va sotish huquqi berilishi bo'yicha shart qo'yishga haqli. Shu bilan birga, garovga qo'yuvchi ushbu agentlik shartnomasini, u tuzilganidan keyin rad etishga haqli emas. Garov majburiyatlari garovga qo'yuvchi yoki garovga oluvchining vafoti bilan tugamaydi va merosxo'rlarga o'tadi. Garov shartnomasi garovga qo'yilgan mol-mulk nobud bo'lsa yoki yo'q qilinsa, va agar garovga qo'yilgan mol-mulk uchun kompensatsiya, masalan, takoful sug'urtasi nazarda tutilmagan bo'lsa, bekor qilinadi, bu holda kompensatsiya vazifasini bajaruvchi mol-mulk garovga qo'yilgan mol-mulk o'rnini egallaydi. Shuningdek, garov shartnomasi garovga oluvchi tomonidan bekor qilinganda, qarzni to'lash yo'li bilan undan ozod bo'linmasa, garovga oluvchi garovga bo'lgan huquqidan voz kechganida ham tugatiladi. Bunga qo'shimcha ravishda, garov shartnomasining amal qilish muddati, garovga oluvchining roziligi va ruxsati bilan, agar garov obyektining yangi egasi garov shartnomasini saqlashga rozi bo'lmasa, garovga qo'yilgan mol-mulkka egalik huquqining boshqa shaxsga o'tishi (sotish, hadya qilish yoki vasiyatnoma bo'yicha o'tkazish) natijasida ham tugashi mumkin. Garovga oluvchi, agar u garovni qisman ozod qilinishini qabul qilmasa, qarzning istalgan to'lanmagan qismi

uchun garovga qo'yilgan mol-mulkni to'liq ushlab turishi mumkin. Garovga oluvchi qarz to'langanidan keyin, garov bilan ta'minlanmagan boshqa qarz tufayli garovga qo'yilgan mol-mulkni o'zida saqlab qolishga haqli emas, ammo ikki tomon ushbu garov ular o'rtasida ma'lum bir muddat ichida yuzaga keladigan har qanday qarz uchun kafolat bo'lishiga kelishib olgan holatlar bundan mustasno. Bitta obyekt ikki yoki undan ortiq garov oluvchiga garov sifatida qo'yilishi mumkin (Usmani, 2002:45). Agar, garovga qo'yilgan barcha narsalar bir xil ustuvorlikka ega bo'lsa, unda barcha taraflarning roziligi talab qilinadi va garov predmeti ular uchun qarz miqdoriga mutanosib ravishda umumiy bo'ladi. Agar garov shartnomasi tartibiga ko'ra, keyingi garovga oluvchi o'z qarzini oldingi qarz to'langandan keyingina to'lashi mumkin bo'lsa, faqat keyingi garovga oluvchining roziligi talab qilinadi. Garovga qo'yilgan mol-mulk garovni oluvchiga, uning ishonchli vakiliga yoki agentiga saqlash uchun (omonat) ishonib topshiriladi va u garovga qo'yilgan bo'lsa ham, garov qo'yuvchining mulki bo'lib qoladi. Agar, garovga qo'yilgan mol-mulk garovga oluvchining yoki uning ishonchli vakilining o'z vakolatlarini suiste'mol qilishi yoki ehtiyotsizligidan boshqa sabablar tufayli nobud bo'lsa, ular bunday zararning o'rnini qoplashga majbur emaslar va qarzning hech qanday qismi bekor qilinmaydi. Boshqa tomondan, agar nobudlik ularning o'z vakolatini suiste'mol qilishi yoki ehtiyotsizligi tufayli yuz bersa, aybdor shaxs nobud bo'lgan vaqtdagi qiymatni qoplashi kerak bo'ladi, lekin qarz o'z kuchida qoladi. Tomonlar, shuningdek, qarzni nobud bo'lgan garov qiymatidan qoplashga kelishishlari mumkin. Agar garov predmeti garovga qo'yuvchida bo'lgan paytda nobud bo'lsa, u holda garovga qo'yuvchi boshqa garov taqdim etishi kerak bo'ladi, ammo garovga oluvchi garovdan voz kechish holatlari bundan mustasno. Garovga qo'yuvchi o'ziga tegishli bo'lgan va garovga oluvchining ixtiyorida bo'lgan mulkni garov sifatida belgilashga haqli, masalan, ishonch asosida yoki saqlash uchun topshirilgan mol-mulk, vaqtincha bepul foydalanish uchun garovga oluvchiga topshirilgan mulk yoki investitsiya hisobvarag'i, yoki bekor qilingan shartnomalar natijasida qolgan aktivlar va joriy hisobvaraqlar shular jumlasidandir. Bu holda garov predmeti mulkiy javobgarlikdan ishonchli mulk maqomiga o'tadi. Garovga qo'yuvchi har qanday mol-mulkni garov ta'minoti maqsadida vaqtincha bepul foydalanish uchun olishi yoki ijaraga olishi mumkin. Har ikki holatda ham bu mulk egalarining ruxsati bilan amalga oshiriladi. Agar, qarz to'lov vaqti kelganida garov predmeti sotilgan bo'lsa, uni bergan shaxs, garov qo'yuvchidan xuddi shunday mol-mulk yoki uning qiymatini qaytarishni talab qilishi mumkin. Garov predmeti nobud bo'lsa, uni olgan garovga qo'yuvchi uni qoplashga – zararni kompensatsiya qilish yoki huddi shunday obyekt bilan o'rnini to'ldirishga majbur. Ijaraga olingan mulk uchun tovon faqat garovga qo'yilgan

mulkning nobud bo'lishi ijarachining vakolatini suiste'mol qilishi yoki beparvoligi bilan sodir bo'lsa, garovga oluvchi tomonidan to'lanadi. Sotuvchi oldi-sotdi shartnomasida xaridorga kechiktirilgan to'lov asosida sotilgan mulkni, xaridor haqiqatda yoki rasmiy tarzda egalik qilganidan keyin, qarz uchun garov sifatida belgilashi mumkin. Garov predmeti keltirgan daromadlar, agar boshqacha kelishuv bo'lmasa, (ajraladigan yoki ajralmaydigan bo'lishidan qat'i nazar) asosiy mulk bilan birga garovga qo'yilgan hisoblanadi. Garovga beruvchi garovga oluvchining roziligi bilan garov predmetidan foydalanishga haqli, lekin garovga oluvchi, rozilikdan qat'i nazar, undan bepul foydalanishga haqli emas. Faqat garovga qo'yuvchining roziligi bilan va o'rta bozor narxida haq to'lab foydalanishi mumkin. Garovga qo'yuvchi garovni ta'mirlash va shikastlanishdan himoya qilish uchun zarur barcha xarajatlarni zimmasiga oladi. Agar, garovga oluvchi bu xarajatlarni rozilik bilan yoki roziliksiz qoplasa, u tovon talab qilish yoki ushbu qilingan xarajatga teng miqdor ekvivalentida foydalanish huquqiga ega bo'ladi. Garovni saqlash, hujjatlashtirish va sotish bilan bog'liq barcha xarajatlarni odatda garovga oluvchi zimmasiga oladi. Agar, garov shartnomasida boshqa holat ko'zda tutilgan bo'lsa, garovga qo'yuvchi ham ularni o'z zimmasiga olishi mumkin (AAOIFI, 2021).

Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqib xulosa qiladigan bo'lsak, har ikkala yondashuvda garov (rahn) institutining huquqiy kuchga ega bo'lishi uchun muayyan umumiy shartlar va talablar mavjud bo'lib, ular quyidagilardir:

- garov shartnomasining shaxslar o'rtasidagi majburiyatni mustahkamlovchi vosita sifatidagi rolini e'tirof etadi;
- garovga olingan mulkning egalik huquqi o'zgarishi garov majburiyatlariga ta'sir qilmasligini ta'kidlaydi;
- qarzdor vafot etgan taqdirda ham garov huquqi saqlanib qoladi va merosxo'rlar orqali garov bilan bog'liq mas'uliyat davom ettiriladi;
- qarz to'liq qoplangunga qadar garovga oluvchi mulkni ushlab turish huquqiga ega ekani e'tirof etiladi;
- garov obyekti nobud bo'lsa yoki zarar ko'rsa, garovga oluvchining zararni qoplash huquqi va ehtimoliy javobgarligi belgilab beriladi;
- har ikki yondashuvda ham garov predmeti bo'yicha turli holatlarda uchinchi shaxslar – ishonchli vakil, vasiyning aralashuvi ko'zda tutiladi.

MUHOKAMA

«Majalla al-ahkom al-adliya» kodeksining «Garov» kitobi va AAOIFIning 39-son «Garov va zamonaviy amaliyotda uning qo'llanilishi» nomli Shariat standartida bayon etilgan rahn institutining klassik va zamonaviy talqinlarini taqqoslash natijalari ushbu moliyaviy-huquqiy vosita bo'yicha asosiy o'xshashlik va farqlar

turli metodlar asosida aniqlandi. Har ikki manba rahnni ishonch asosiga qurilgan, shariatga mos ta'minot vositasi sifatida tan olgan bo'lsa-da, ularning amaliy qo'llanilishida sezilarli tafovutlar mavjud. Xususan, garov obyekti tabiatida: klassik yondashuv faqat moddiy va to'liq egalikdagi aktivlarni garovga qo'yishga ruxsat bersa, zamonaviy yondashuv vaqtincha egalikdagi yoki ijaraga olingan aktivlarni ham qamrab olgan kengroq yondashuvni qo'llaydi. Qabz (egalik) masalasida esa klassik yondashuv haqiqiy, ya'ni jismoniy egalikni shart deb hisoblagan bo'lsa, zamonaviy yondashuv huquqiy (konstruktiv) egalikni ham maqbul deb topadi, bu esa huquqiy realizm va operatsion qulaylikka qaratilgan zamonaviy yondashuvdir. Garov obyekti foydalanilishi nuqtayi nazaridan, klassik modelda kreditorning garov obyekti egasidan ruxsat olmasdan foyda olishini qat'iy cheklaydi, AAOIFI standartiga asosan esa bozor qiymatidagi to'lov asosida garov obyektidan foydalanilishiga ruxsat beradi. Ushbu tafovutlar islom moliyaviy amaliyotining zamonaviy ehtiyojlarga moslashuvi, shuningdek, fiqhiy tafakkurdagi dinamik rivojlanishning yaqqol ifodasidir. Garchi, har ikkala yondashuvda garovga doir umumiy tamoyillar o'xshash bo'lsa-da, ularning o'rtasidagi tafovutlar – asosan, jahon moliya tizimi va huquqiy normalarining so'nggi ikki asr ichidagi evolyutsiyasi, garov munosabatlarining kengayishi hamda ularning amaliyotdagi qo'llanilish shakllarining takomillashuvi bilan bevosita bog'liqdir.

Ushbu qiyosiy tahlil faqatgina ikki yuridik manbaning farqlarini ochib bermasdan, balki zamonaviy islom moliyasi institutlari oldida turgan huquqiy va amaliy muammolarni hal qilish zaruriyatini ham ko'rsatib beradi. Garovga oid qoidalarining zamonaviy talqini, xususan AAOIFI tomonidan ishlab chiqilgan standartlar orqali, klassik fiqhiy yondashuvni zamonaviy moliyaviy vositalar va amaliyotlarga moslashtirishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, egalik shakllarining kengaytirilishi, garov obyekti sifatida turli xil aktivlarning qabul qilinishi va garovdan foydalanishdagi shart-sharoitlarning aniqlashtirilishi islom moliyaviy institutlariga yuqori darajadagi huquqiy aniqlik va operatsion moslashuvchanlikni ta'minlab beradi. Bundan tashqari, zamonaviy standartlar, o'z tafsilotlari bilan shartnoma tomonlari o'rtasidagi huquq va majburiyatlarni aniqroq tartibga solishga xizmat qiladi, bu esa kelajakda paydo bo'lishi mumkin bo'lgan huquqiy nizolarni minimallashtirishda muhim omil hisoblanadi (Thani, Abdulloh and Hassan, 2003:112). Biroq bu zamonaviy yondashuv aslida «Majalla al-ahkom al-adliya» kabi klassik huquqiy asarlarga tayangan holda shakllangan bo'lib, fiqhiy yondashuvda asos qilib olingan tamoyillar zamonaviy muhitga mos ravishda rivojlantirilganini ko'rsatadi. Shu nuqtayi nazardan, AAOIFI kabi tashkilotlar tomonidan rahn institutining standartlashtirilishi – bu klassik manbalarga suyangan holda ularni yanada rivojlantirish, huquqiy tizimni global moliyaviy amaliyotlarga uyg'unlashtirish

yo'lidagi uzviy bosqich hisoblanadi. Bu esa islom moliyaviy institutlariga nafaqat amaliy ko'rsatma, balki xalqaro moliyaviy muhitda samarali va huquqiy jihatdan ishonchli faoliyat yuritish imkonini beradi.

Mazkur tadqiqot nafaqat rahin institutining klassik va zamonaviy talqinlarini yoritadi, balki ularning o'zaro uzviy aloqadorligini ilmiy asosda ochib beradi. Avvalgi olib borilgan tadqiqot ishlarini o'rganish jarayonida, asosan AAOIFI standartlarining alohida o'rganilganligiga va klassik asarlar, jumladan «Majalla al-ahkom al-adliya» asari bilan tizimli qiyosiy tahlil yetarlicha e'tiborga olinmaganligiga guvoh bo'ldik. Shu sababdan, ushbu maqolani ilk bor ikki muhim huquqiy manbaning asosiy mezonlar bo'yicha struktural va kontseptual tahlilini taqdim etishga bag'ishladik. Amaliyotda qo'llanilish nuqtayi nazaridan, tadqiqot natijalari islom moliyasi sohasida faoliyat yuritayotgan huquqshunolar, shariat maslahatchilari va soha mutaxassislari uchun muhim metodologik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Ayniqsa, garov shartnomalarini tuzish, huquqiy egalikni aniqlash, garov obyekti ustidan nazorat va undan foydalanish masalalarida klassik fiqhiy tamoyillar va zamonaviy amaliyotlar o'rtasidagi muvozanatni saqlash zarurati ortib borayotgan bir paytda, ushbu tadqiqot ishi bu boradagi ilmiy va amaliy ehtiyojni qondiradi degan fikrdamiz.

XULOSA

Islom tijorat huquqining muhim instrumentlaridan biri – rahin tushunchasining klassik yondashuvi «Majalla al-ahkom al-adliya» va zamonaviy normativ yondashuvi – AAOIFI 39-son Shariat standarti o'rtasidagi qiyosiy tahlil amalga oshirildi. Tadqiqot davomida garov shartnomasining tuzilishi, garov obyekti tabiatining tafovutlari va o'xshash jihatlari, egalik (qabz) talablari hamda garov shartnomasi tomonlarining huquq va majburiyatlari kabi muhim mezonlar asosida har ikki manbaning yondashuvlari solishtirildi.

Amalga oshirilgan tahlillarning natijalari shuni ko'rsatdiki, AAOIFI tomonidan ishlab chiqilgan standartlar, jumladan rahin masalalariga bag'ishlangan Shariat standarti ko'proq boyitilgan tafsilotlar va huquqiy mexanizmlar orqali bugungi kungacha rivojlanib va takomillashib kelayotgan islom moliya institutlari faoliyat jarayonlarini tartibga solishda va ular amaliyoti davomida yuzaga kelayotgan masalalarga shar'iy yechimlar berishda asosiy xizmat qilayotganlar safida hisoblansada, ularning asosiy tamoyillari klassik fiqhiy manba, jumladan «Majalla al-ahkom al-adliya» asariga tayanib, aynan ushbu asar garov instrumentining huquqiy strukturasi va fiqhiy asoslarini tizimli ravishda bayon qilgan ilk kodifikatsiya sifatida zamonaviy yondashuvlar uchun mustahkam poydevor bo'lib xizmat qilgan.

Shu jihatdan, islom moliyasida fiqhiy yondashuvlar va zamonaviy normativ hujjatlar o'rtasidagi huquqiy uzviylikni anglash garov shartnomasining takomillashuvi va tatbiq doirasining kengayishini tushunishda nazariy asos bo'la oladi.

MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Accounting and Auditing Organization for Islamic Financial Institutions. (2021). Shari'ah Standard No. 39: Rahn (Pledge). In Shari'ah Standards (3rd ed.). Manama: Author.
2. Bank Negara Malaysia. (2010). Shariah resolutions in Islamic finance (2nd ed.). Kuala Lumpur: Bank Negara Malaysia.
3. Majalla al-Ahkam al-Adliya. (1876). Majalla al-ahkom al-adliya. Istanbul: Official Gazette of the Ottoman Empire.
4. Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. (2013). Tafsiri Hilol. Jild 1. Baqara surasi tafsiri (3rd ed.). Tashkent: Hilol-Nashr.
5. Saeed, Abdullah. (2004). Rahn (pledge) as a security in Islamic law. Arab Law Quarterly, 19(3), 249–266.
6. Thani, Norizan Nordin, Abdulloh, Mohamed Ridza, & Hassan, M. Kabir. (2003). Law and practice of Islamic banking and finance. Kuala Lumpur: Sweet & Maxwell Asia.
7. Tyser, Charles Robert, Demetriades, David G., & Effendi, Ismail. (1901). The Mejlle: Being an English translation of Majallah el-Ahkam-i-Adliya and a complete code of Islamic civil law. Lahore: The Law Publishing Company.
8. Usmani, Muhammad Taqi. (2002). An introduction to Islamic finance. Karachi: Idaratul Ma'arif.

REFERENCES

1. Accounting and Auditing Organization for Islamic Financial Institutions. (2021). Shari'ah Standard No. 39: Rahn (Pledge). In Shari'ah Standards (3rd ed.). Manama: Author.
2. Bank Negara Malaysia. (2010). Shariah resolutions in Islamic finance (2nd ed.). Kuala Lumpur: Bank Negara Malaysia.
3. Majalla al-Ahkam al-Adliya. (1876). Majalla al-ahkom al-adliya. Istanbul: Official Gazette of the Ottoman Empire.
4. Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. (2013). Tafsiri Hilol. Jild 1. Baqara surasi tafsiri (3rd ed.). Tashkent: Hilol-Nashr.
5. Saeed, Abdullah. (2004). Rahn (pledge) as a security in Islamic law. Arab Law Quarterly, 19(3), 249–266.
6. Thani, Norizan Nordin, Abdulloh, Mohamed Ridza, & Hassan, M. Kabir. (2003). Law and practice of Islamic banking and finance. Kuala Lumpur: Sweet & Maxwell Asia.
7. Tyser, Charles Robert, Demetriades, David G., & Effendi, Ismail. (1901). The Mejlle: Being an English translation of Majallah el-Ahkam-i-Adliya and a complete code of Islamic civil law. Lahore: The Law Publishing Company.
8. Usmani, Muhammad Taqi. (2002). An introduction to Islamic finance. Karachi: Idaratul Ma'arif.